ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№8
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 372 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.



**BOSH MUHARRIR:**

**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***

***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi ........ 14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna

O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari ........ 20
Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li

Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi ........ 25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi ........ 30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi

Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati ........ 33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna

Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv ........ 39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari ........ 44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari ........ 48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna

Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies ........ 52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna

Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari ........ 55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi

"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida ........ 59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna

O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni ........ 65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi

Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri ........ 68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich

O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari ........ 72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li

Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida ........ 76
Boypolvonov Barot Djonqobulovich

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini ........ 81
Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi

O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari ........ 86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li

Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri ........ 90
Jumanova Ug'iloy Sodiqjonovna

Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish ........ 96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna

Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni ........ 100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati ........ 105
Murodova Madina Karim qizi

Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari ........ 108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish ........ 110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna

O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari ........ 115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna

Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika ........ 120
Sidiqova Yulduz Sobirovna

6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi ........ 123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi

Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ........ 128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich

Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish ........ 132
F. Zaynabuddinov

Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза ........ 135
Киреева Эльвина Фларитовна

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar ........ 140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich

Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish ........ 144
Boybo'riyeva Saodat O'ralovna

Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari ........ 148
Davletova A.

Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari ........ 152
G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi

Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish ........ 156
Madmarova Gulchexra Qodirovna

O'lkashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish ........ 160
Mamajonov Mo'minjon

Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli ........ 165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi

Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari ........ 169
Muhiddinov Muhriddin Nuriddin o'g'li

Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati ........ 173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna

Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini, ularning o'yin ampluasini hisobga olgan holda aniqlash usullari ........ 178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi

PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda IMEN texnologiyalaridan foydalanish ........ 184
Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi

Yoshlar o'rtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari ........ 188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich

Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari ........ 192
Rasulova Nozigul Abdivahid qizi

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish ........ 196
Sharofova Nilufar Ilhom qizi

Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida) ........ 200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna

Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari ........ 204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari ............208
Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi

Nofillologlarni (filolog bo‘lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o‘rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili ............214
Zarina Itolmasova

Forsayt va qaror qabul qilishni bog‘lovchi kognitiv komponentlar ............219
Hasanova Sumanbar Hamroqulovna

Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов фармацевтических факультетов ............222
Мамадалиева Зарина

Abduqodir Shakuriyning ta’lim va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g‘oyalari: chuqur tahlil ............226
Ashurova Dilrabo Isroil qizi

Bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..230
Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi

Badiiy-estetik qobiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar ............233
G. S. Kaxarova

Umumta’lim maktablarida informatika o‘qitish asosida ta’limni raqamlashtirishning metodologik asoslari...236
Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich

Shaxsda ma’naviy intellektni rivojlanishiga qadriyatlar yo‘nalganligining ta’siri ............240
Mirxoliqova Charos Xabibullayevna

O‘qituvchilarning sun’iy intellekt bo‘yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv ............244
Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna

Ismlarning ma’noliligi va ularni o‘qitishda lingvopedagogik yondashuvlar ............252
Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich

Fitnes-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari uslubiyati ............258
Shaxriddinova Laylo Nurxonovna

Raqamli ta’lim texnologiyalarining didaktik va “learning analytics”ning nazariy asoslari ............262
Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o‘g‘li

Esse yozishni o‘rgatishda zamonaviy metodlar ............268
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi

Iqtisodiy matnlar tarjimasini o‘rgatishda raqamli simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ............272
Xujanazarova Nozima Omonjonovna

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy metodologik asoslari ............275
Axmedov Nodir Sadir o‘g‘li

Talaba-yoshlarda qo‘shiq ijrochilik san’atini shakllantirishning zamonaviy pedagogik xususiyatlari: ta’lim islohotlari kontekstida yondashuv ............279
Begisbay Temirbayev

Xorijiy davlatlarda biologiya o‘qituvchilarini tayyorlash tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari ............283
Hayitov Abdirasul Eshdavlatovich

Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalariga umumiy fizika kursini o‘qitishda virtual labaratoriyalarning ahamiyati ............286
Abdurakibov Akmal Abdugaparovich

Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining gapirish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yangi – “instruksional texnologiya” va sun’iy intellektga tayanib o‘qitish metodologiyasi ............290
Abrorxo‘ja Muminxo‘jayev Muksumxodjayevich

Jaloliddin Rumiy fikrlarining hozirgi yoshlarga ta’siri ............296
Allayarov Doniyor Islom o‘g‘li

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ............298
Aygul Aralbayevna Urazimbetova

Sud psixologik ekspertizasida travmatik tajriba (PTSD) fonida emotsional reaksiya va ko‘rsatma sifati o‘rtasidagi bog‘liqlik ............301
Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li

Boshlang‘ich ta’limda 4 “K” kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muhim dolzarbliklar ............307
Idiyeva Gulchehra Izomovna

Bikaryer oilalarda gender rollar integratsiyasi jarayonidagi psixologik omillar ........ 311
Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi

Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishda sun’iy intellekt texnologiyalarida foydalanish muammolari va yechimlari ........ 315
Karshiyeva Dilnoza Utkirjonovna

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini shakllantirishda reflektiv yondashuv ........ 319
Laylo Baxtiyor qizi Axmedova

1939-1945-yillarda O‘zbekiston hududida qishloq xo‘jaligidagi paxtachilik va oziq-ovqat muammolari ........ 323
Mutallibjonov Boburmirzo Muzaffarovich

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining tajriba oxiri jismoniy tayyorgarligi darajasi dinamikasi ........ 328
Samadov Sardor Sodiqovich

O‘zbekiston umumta’lim maktablarida mazmun va til integratsiyalashgan o‘qitish (CLIL) yondashuvining pedagogik va amaliy imkoniyatlari ........ 335
Tursunaliyeva Muattar Alisher qizi

O‘rta maktab 11-sinf o‘quvchilarining lug‘at boyligini oshirishda turli metodlarning o‘rni ........ 340
Xamzayeva Ruxshona Abdusamadovna

Umumta’lim maktablardagi ingliz tili o‘quv darsliklari tahlili ........ 344
Xiloldinova Zulayho

Ingliz klassik adabiyoti orqali talabalar ma‘naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari ........ 348
Ziyotov Farruh Saodilla o‘g‘li

XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida ingliz dramasining janr va uslub xususiyatlari ........ 352
Sherqulova Zuloyho Dilshod qizi

Биохимическая роль витаминов как кофакторов в метаболических процессах организма ........ 356
М. У. Джалилов

ESL/EFL (ingliz tili ikkinchi/chet til sifatida) kontekslarida lug‘at boyligini rivojlantirishda loyiha asosidagi ta’lim (PBL – Project-Based Learning): tajribalar, natijalar va O‘zbekiston sharoiti uchun tavsiyalar ........ 359
Masharibova Sayyora Ahmedovna

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda kognitiv tezkorlikni rivojlantirishda multisensor yondashuvning samaradorligi ........ 364
Musratova Zilola

Yangi O‘zbekiston sharoitida talabalarning tarixiy dunyoqarashini rivojlantirishda tarixiy ongning ahamiyati ........ 367
Shadibekova Dildora Fazildjanovna

# YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA TALABALARNING TARIXIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY ONGNING AHAMIYATI

Shadibekova Dildora Fazildjanovna
Nizomiy nomidagi O'zMPU mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada talabalarda tarixiy dunyoqarash, ong va tafakkur o'zaro bog'liqligi, ularning o'ziga xos xususiyatlari, strukturaviy mohiyati, rivojlanish jihatlari hamda mazmuni tahlil qilingan. Shuningdek, tarixiy dunyoqarashni rivojlantiruvchi ta'limiy-o'quv vositalari asosida shakllangan amaliy ko'nikmalar sintezi pedagog, sotsiolog, metodist va psixolog olimlarning ilmiy qarashlari asosida yoritilgan. Ularga nisbatan subyektiv munosabatning pedagogik ta'sir vositalari ham ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tarixiy dunyoqarash, ong, tarixiy tafakkur, o'ziga xos xususiyatlar, struktura, tarixiy shakllanish strukturasi, rivojlanish mazmuni, konseptual asos, komponent, rivojlantiruvchi ta'limiy-o'quv vositalar, amaliy ko'nikmalar sintezi.

**Abstract:** This article analyzes the interrelation between historical worldview, consciousness and thinking among students, their specific characteristics, structural essence and developmental aspects. It also examines the synthesis of practical skills formed through developing educational and training tools, based on the scientific perspectives of pedagogues, sociologists, methodologists and psychologists. Furthermore, it sheds light on the pedagogical means of influencing these subjective attitudes.

**Key words:** historical worldview, consciousness, historical thinking, specific characteristics, structure, structure of historical formation, content of development, conceptual basis, component, developing educational and training tools, synthesis of practical skills.

**Аннотация:** В статье проанализирована взаимосвязь исторического мировоззрения, сознания и мышления студентов, их специфика, структурная сущность, а также содержательные аспекты развития. Рассмотрен синтез практических умений и навыков, формируемых на основе развивающих учебно-воспитательных средств, с опорой на научные взгляды педагогов, социологов, методистов и психологов. Освещены педагогические средства воздействия на данные субъективные установки.

**Ключевые слова:** историческое мировоззрение, сознание, историческое мышление, специфика, структура, структура исторического формирования, содержание развития, концептуальная основа, компонент, развивающие учебно-воспитательные средства, синтез практических умений и навыков.

## KIRISH

Mamlakatimiz ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning zamirida zamonaviy nutqiy-kasbiy ko'nikmalarga, mantiqiy fikrlashga, intellektual salohiyatga ega, kuchli bilimi, dunyoqarashi keng shaxslarni tarbiyalash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev mamlakatimiz yoshlarini tarbiyalash masalasiga to'xtalib, 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"[1] – deb ta'kidlaganlari ham bejiz emas. Shu nuqtayi nazardan, yosh avlodning har tomonlama barkamol, raqobatbardosh shaxs bo'lib voyaga yetishida tarixni o'rganish, tariximizdagi buyuk allomalar, olimlar, sarkardalarning hayotiy yo'li, ilmiy faoliyati hamda ularning ta'lim mazmuni, sifatni boshqarishga doir ilmiy qarashlarini tahliliy o'rganish muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, yosh avlodning dunyoqarashini, mantiqiy, kreativ fikrlashini, shu bilan bir qatorda, ulardagi tarixiy ong va tarixiy tafakkurni ilmiy adabiyotlarni, materiallarni o'qib tahliliy o'rganish asosiy o'rin egallaydi. O'quvchilarda tarixiy ong

1 Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy Majlisga Murojaatnomasi" 2020 y. 30 dekabr №-255 son

va tafakkurni rivojlantiradigan ahamiyatli jihatlardan biri bu xalqning milliy o'zligi, xalqona qadriyatlari, urf-odatlari, ota-bobolardan meros sanalgan rasm-rusumlaridir. Shu bois, o'quvchilarda tarixiy ong va tarixiy tafakkur o'zining muayyan davrdagi tarixiy manbalarni o'qib, ulardan tarbiyaviy va ma'naviyatni o'stiruvchi xulosalar chiqarishga, ilm egallashga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq. O'sib kelayotgan yosh avlodning akmeologik, aksiologik yondashuvlarini rivojlantirishda tarixiy ong va tarixiy tafakkur izchillikda takomillashib borishi ayni muddaodir. Shu o'rinda tarixiy ong tushunchasining konseptual semantikasiga, uning mazmun-mohiyatiga olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari hamda fikrlarini tahlil qilishga to'xtalish, tarixiy ong va tarixiy tafakkurning o'zaro mutanosibligini o'rgangan respublikamiz hamda chet el olimlari tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar mavjud.

"Tarixiy ong kategoriyasi murakkab tuzilish, shakllanish, rivojlanish yo'llari, usul va vositalariga bog'liq tarzda ichki strukturasiga egadir. Fanda ijtimoiy ongning ikkinchi darajasi – kundalik empirik ong va ijtimoiy-psixologik nazariy ong darajasiga ajratilgani kabi tarixiy ong ham bir necha bosqich va darajalarga bo'linadi. Kundalik tarixiy ong darajasi har bir individning o'z hayotiy tajribasi, umri davomida to'plagan, o'zi bilgan va eshitgan, ba'zan ishtirok etgan voqea-hodisalar to'g'risidagi birlamchi tasavvurlari, xotira va xulosalaridir"[2]. "Tarixiy ong, tarixiy xotira va milliy ong o'tgan saboqlarni to'g'ri anglash bilan birga, kelajakni ham ko'ra bilishning ma'naviy zaminidir[3]. Darhaqiqat, tarixiy ong, tarixiy xotira va milliy ong o'quvchida ma'lum obyektiv va subyektiv ijobiy ta'sirlar natijasida dinamiklik hosil qiladi. Shuning uchun tariximizda badiiy asarlar, ulardagi voqealar rivoji, ilmiy adabiyotlar tahlili tarixiy ong takomili sanaladi. Shu xususda taniqli nemis olimi N.L. Mislivesning e'tirofi tahsinga sazovor: "Tarixiy ong o'tgan tajribasini bugungi kun va kutilayotgan kelajak nuqtayi nazaridan baholab, amaliy hayotda to'g'ri yo'lni topish imkoniyatini hosil qilishdir"[4]. Aytish joizki, har bir ijtimoiy hodisa va ijtimoiy jarayonning o'ziga xos ichki strukturaviy tuzilmasi, uning tarkibiy komponentlari mavjud bo'lib, ularning o'zaro aloqadorligi va uyg'unligi kabi jihatlarini o'rganish kompleks-funksional tahlil orqali amalga oshiriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimiz ilmiy izlanuvchilaridan Q.O. Maxkamov o'zining "O'zbekistonda o'quvchilar tarixiy ongining yangilanishi va rivojlanishi (sotsiologik tahlil)" mavzusidagi tadqiqot ishida ilmiy adabiyotlarda tarixiy ongning shakllanish darajalari keltirilib, unga izoh berilgan.

"Tarixiy ongning birinchi (quyi) darajasi shakllanishi bevosita hayotiy tajribani to'plash asosida yuz beradi. Inson hayotining bolalik davridanoq shakllana boshlagan tarixiy ong asosan kundalik hayotiy, tizimlashmagan bilim, ko'nikma, shuningdek, o'tmish haqidagi ma'lumotlar hamda turli oilaviy marosimlardan olingan taassurotlar ko'rinishida bo'ladi.

Tarixiy ongning ikkinchi (o'rta) darajasida shaxsning olam haqida bilim va ko'nikmalari turli urf-odat, marosim va an'analardagi ishtiroki, ota-onasi yoki o'zidan kattalardan olgan ma'lumotlari, badiiy adabiyot, kino, teatr, radio, televideniya, me'moriy obidalar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari ta'siri ostida shakllanishi mumkin. Ammo tarixiy ongning bu darajasi ham hali tizimga solingan bilimga aylanmaydi.

Tarixiy ongning uchinchi (yuqori) darajasi maktabda olingan tarixiy bilimlar asosida shakllanadi. Ta'lim jarayonida shakllantirilgan tarixiy ong o'tmish haqidagi bilimlarning rivojlanishiga, mustahkamlanishiga va ularning aniq bir tizimga tushishiga hamda tafakkurda charxlanib xotirada saqlanib qolishiga imkon beradi.

Tarixiy ong shakllanishining to'rtinchi (oliy) darajasi inson o'tmishni har tomonlama nazariy tushunish, tarixiy taraqqiyot tendensiyalarini payqay olish qobiliyatiga ega bo'lganda yuzaga keladi. Bu davrda kishi har tomonlama mukammal shakllangan, insoniyat jamiyatining rivojini ta'minlaydigan harakatlantiruvchi kuchlarni yaqqol tasavvur etadigan, o'tmish haqida to'plagan tarixiy bilimlari negizida tarixiy dunyoqarashi vujudga kelgan bo'ladi.[5]

Tabiatshunos Abu Rayhon Beruniy quyidagi fikrlarni ilgari suradi: shaxs qanchalik bilimni ko'p egallasa, shunchalik yangi bilimlar paydo bo'lishini aytib o'tadi. Ya'ni inson egallagan bilimi orqaligina yana yangi tushunchalar, yangiliklarni yarata oladi. Uning aytishicha, "Kuzatishning ko'pligi ko'rilgan narsalarni eslab qolish qobiliyatini yaratadi".[6] "Beruniyning falsafiy-tarixiy tadqiqotlari nafaqat boy aniq faktologik mazmunga ega bo'lganligi,

2 Раҳмонов Р.Файзиев Ёшлар дунёқараши шаклланишида тарихий онг ва тарихий хотира.-Тошкент. Ўзбекистон. 2008.- Б 21
3 Каюмов У.К. Роль национального самосознания в формировании жизненной позиции молодёжи Узбекистана. // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент. 2003. - № 6. С. 53-56
4 Мисливес Н.Л. Историческое сознание молодёжи как предмет социологического иследования // / Смена парадигма в историографии всеобшей истории в Республике Беларус И Российской Федератсии: сб. науч. Ст. /Учреждениэ образования Гродненский гос. Ун-т им Я.Купали. – Гродно:ГрГУ им Я.Купали.2016.С.122-128.
5 Махкамов Қ.О. Ўзбекистонда ўқувчилар тарихий онгининг янгиланиши ва ривожланиши (социологик таҳлил).Социология фан.бўй.фал .док. Дисс (PhD).Тошкент.2019.-38-39 б
6 Sharipov A. Малоизвестные страницы переписки между Беруни и Ибн Синой.//Общественные науки в Узбекистане, –№ 5. 1965, –С.39.

balki shu qatori falsafa tarixini tahlil qilishning ma'lum konseptual-uslubiy muammolarini ko'tarishi va bir qator prinsiplarini ishlab chiqish bilan bog'liqligi ila ajralib turadi".[7]

Psixolog olim E. G'oziyevning ta'kidlashicha, "nutqning sharofati bilan tafakkur mahsulotlarining izchilligi, mantiqiyligi, sistemaliligi yuzaga keldi, kelajak avlod uchun meros tariqasida qoldirish imkoniyati barpo bo'ldi. Tafakkur mahsulotlarining og'zaki va yozma nutqlarda ifodalanishi (mustahkamlanishi) yosh avlodga muvaffaqiyatli ta'lim berish, ularni har tomonlama rivojlantirish imkonini yaratadi"[8]. Tafakkurdagi fikr va g'oyalar nutqda ifodalanishi barobarida ularda izchil, mantiqli munosabat bildirish yuzaga kela boshlaydi.

Olib borilgan tadqiqotimiz nuqtayi nazardan shu o'rinda "dunyoqarash" so'zining lisoniy-semantik xususiyatida to'xtalib o'tdik. Ijtimoiy fanlar voqelikning ijtimoiy-tarixiy, g'oyaviy-mafkuraviy manzarasini yaratadi. Dunyoqarash – "dunyoni tushuntirish", "dunyoni his qilish", "olamni idrok etish" kabi tushunchalar bilan ma'nodoshdir. U mafkura bilan uzviy aloqador. Chunki mafkura o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, jamiyatimiz oldidagi oliy maqsad va vazifalarni ifoda etadi, yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarini birlashtirib, buyuk maqsadlar sari chorlaydi, yosh avlodni vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularning sog'lom dunyoqarash va mustaqil irodaga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda, "mafkura", "ma'naviyat" va "dunyoqarash" tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan, bir-birini to'ldiradigan tushunchalardir. Zero, mustaqil fikr, sog'lom dunyoqarash, mustahkam mafkuraviy immunitetga ega, ma'naviy jihatdan barkamol insongina mamlakatimizda erkin, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi, yurtimiz taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgan har qanday tazyiq va tahdidlarga bardosh berishi mumkin.

"Dunyoqarash – subyektiv voqelikni baholovchi qarorlar to'plami; dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog'liq. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o'z aksini topadi. Shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'langan. Dunyoqarash insonning o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu jihatdan dunyoqarash voqelikning inson ongidagi subyektiv in'ikosidir. Shaxsning dunyoni anglashi orqali uning o'zini anglashi ham shakllanib boradi. Shu tariqa dunyo haqidagi barcha bilimlar yuksak darajada umumlashtiriladi va yaxlit dunyoqarash shakllanadi."[9]

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi mazkur ilmiy ishda mavzuga oid ma'lumotlar birlamchi va ikkilamchi manbalar asosida yig'ildi. Birlamchi manbalar sifatida oliy va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar hamda talabalar o'rtasida o'tkazilgan suhbatlar, so'rovnomalar va bevosita kuzatuv natijalari qo'llanildi. Ikkilamchi manbalar sifatida esa ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiya ishlari, rasmiy statistika va ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ma'lumotlar yig'ish jarayonida tanlab olish (sampling) usuli qo'llanilib, respondentlar guruhi ularning ta'lim darajasi, mutaxassislik yo'nalishi va yosh xususiyatlariga qarab shakllantirildi. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlashda sifat va miqdor tahlil usullari birgalikda qo'llanildi. Sifat tahlilida matnli manbalar kontent-analiz asosida o'rganildi, miqdoriy tahlilda esa statistik ko'rsatkichlar foiz, nisbat va dinamik o'zgarishlar shaklida hisoblandi. Shuningdek, solishtirma tahlil orqali turli manbalardan olingan ma'lumotlar o'zaro taqqoslandi, aniqlangan umumiy qonuniyatlar va farqlar asosida xulosalar ishlab chiqildi. Barcha tahlil jarayonida aniqlik va ilmiy asoslanganlik tamoyillariga qat'iy rioya qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim tizimida ta'lim jarayoni subyektlarining tarixiy dunyoqarashini rivojlantirishda o'quv dasturlaridagi belgilangan talablar asosida tarkib toptirish quyidagi omillar bilan o'zaro bog'liq:

- umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining tarix fanini o'qitishda fanning o'quv materialini o'qitish va shu nazariy ma'lumotlar asosida bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish;
- ularning mavzuga oid tushunchalar, terminlar bilan ishlash ko'nikmasini o'stirish;
- o'quv mashg'ulotini tashkil qilishda ulardagi tarixiy bilimga va zamonaviy yondashuvga ega bo'lishlariga yo'naltirish;
- kreativ, mantiqiy fikrlab, mazmunli xulosa chiqarish uchun pedagogik-psixologik imkoniyatlar yaratish;

7 Насирходжаева Г.Проблемы историко- философской мысли в трудах Беруни.-Ташкент:Фан, 2001-с.51
8 Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. –Т.: Ўқитувчи Фан. 1990. -146 б
9 https://uz.wikiquote.org/wiki/

- o'qituvchi dars jarayonida tarixiy ong va tarixiy tafakkurni rivojlantirishga doir ko'rgazmali vositalardan unumli foydalanishi;
- tarixiy muzeylarga tashrif buyurish ishlarini tashkil qilishi va olingan taassurotlarni interaktiv tarzda yondashish.

Sog'lom tarixiy dunyoqarashning asosini barkamol, tashabbuskor, vatanparvar, insonparvar, bilimli shaxs g'oyasi tashkil etadi. Tarixiy an'analarga rioya qilib tarbiya topgan barkamol shaxs dunyoviy va diniy ilmlarni, ma'naviy jihatdan yuksak ichki olami insofli, har tomonlama tirishqoq, ziyoli va ezgulikka moyil inson bo'lishi lozim. Tarixiy dunyoqarash konseptualligida aksiologik ijodiy muhit egasi bilishi lozim bo'lgan qadriyatlar mujassamlashadi.

Tarixiy dunyoqarash ilmiyligi – nazariy va ilmiy-metodik adabiyotlarda kognitiv faoliyatni o'stirish, optimallashgan bilimlarni umumlashtirish hamda uzluksiz holatda amaliyotga uzluksiz tatbiq etib borish tajribasiga tayaniladi. Tarixiy dunyoqarash yillar davomida ta'lim bosqichlarida izchillikda, bosqichma-bosqich rivojlantirilib boriladi. Bu esa o'z navbatida talabalarning tarixga oid bo'lgan o'zlashtirilgan bilimlarini mustahkamlash, tarixiy voqea va dalillarga asoslanish, qadriyatlarni unutmaslik jihatlarini o'z ichiga oladi.

Bizningcha, Yangi O'zbekiston sharoitida talabalarda tarixiy dunyoqarashni takomillashtirish nazariy asoslanishi quyidagi omillar bilan bog'liq:

- talabalarning ma'naviy olamini, kamolot darajasidagi bilimlarini, olam va odam haqidagi qarashlarini tarixiy dalillar asosidagi tushunchalar, falsafiy kategoriyalarning mohiyatini anglash;
- tarixiylikning o'ziga xos mohiyati, moziyga bo'lgan munosabatlarini sog'lom erkin tafakkur bilan uzluksiz oshirib borish;
- o'quv mashg'ulotlarida tarixga oid dunyoqarash tendensiyasini asoslovchi aksiologik muhit yaratish.

Talabalarda tarixiy dunyoqarashni rivojlantirishda o'tmish voqealigining g'oyaviy-mafkuraviy tomonlarini va o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini keng qamrovli singdirish o'rinli. Tarixiy dunyoqarashni singdirish mazmunida fikrlashni, tarixiy tendensiyalarni anglash, mafkura va o'zligimizni ota-bobolarimizdan qolgan ma'naviy merosni o'qib o'rganishimiz, tarixda bo'lgan voqea va hodisalardan ibratomuz xulosa chiqarishimiz kerak.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuni xulosa qilib aytish kerakki, talabalarda tarixiy ong va tarixiy tafakkur orqali tarixiy dunyoqarashni rivojlantirishda tarix bilan bog'liq adabiyotlarni o'rganishga undash, qiziqish hosil qilish va motivatsiya berish ularning milliy o'zligini anglashga, tarixiy madaniyatini egallashga yordam beradi. Bu esa tarixiy ong va tarixiy tafakkurning o'sish ko'rsatkichi oshgan sari, ularda tarixiy madaniyat rivoji sezila boshlaydi. Shunday ekan, yosh avlodni tariximizni o'rganishga va shu orqali ularda tarixiy ong hamda tarixiy tafakkurning rivojlanishi, ularning milliy urf-odatlarga amal qilish, oliyjanoblik, halollik, insonparvarlik, vatanparvarlik hissini takomillashtiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Каюмов У.К. Роль национального самосознания в формировании жизненной позиции молодёжи Узбекистана // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 2003. – № 6. – С. 53–56.
2. Maxkamov Q.O. O'zbekistonda o'quvchilar tarixiy ongining yangilanishi va rivojlanishi (sotsiologik tahlil). Sotsiologiya fan. bo'y. fal. dok. diss. (PhD). – Toshkent, 2019. – B. 38–39.
3. Мисливец Н.Л. Историческое сознание молодёжи как предмет социологического исследования // Смена парадигмы в историографии всеобщей истории в Республике Беларусь и Российской Федерации: сб. науч. ст. / Учреждение образования Гродненский гос. ун-т им. Я. Купалы. – Гродно: ГрГУ им. Я. Купалы, 2016. – С. 122–128.
4. Rahmonov R., Fayziev. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 21.
5. Abduganiyev O. Formation of legal training aimed at competitiveness in pupils of secondary schools // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 9. – No. 7.
6. Насирходжаева Г. Проблемы историко-философской мысли в трудах Беруни. – Ташкент: Фан, 2001. – С. 51.
7. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. – Т.: Ўқитувчи Фан, 1990. – 146 б.
8. https://uz.wikiquote.org/wiki/
9. Sharipov A. Малоизвестные страницы переписки между Беруни и Ибн Синой // Общественные науки в Узбекистане. – № 5. 1965. – С. 39.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.